



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutzimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarining tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
<i>Axmedova Dilnoza Anvarovna</i>	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
<i>Bakirov Otabek Bo'ranovich</i>	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
<i>Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
<i>Khazratova Zukhra Mamaraimovna</i>	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
<i>Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna</i>	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers.....	127
<i>Niyozov Javlonbek</i>	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
<i>S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva</i>	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
<i>Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik</i>	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
<i>Soliqova Barno Sodiq qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
<i>Yarmatov Shermo'min Rahmatovich</i>	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
<i>Атаджанова Сохиба Талиповна</i>	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
<i>Eshonqulova Umida Xolmirzayevna</i>	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
<i>To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna</i>	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
<i>Abulova Mohigul Komiljonzoda</i>	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
Yadgarova Surayyo	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
Yusupova Sanobar Odil qizi	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
Бахтияр Катибжанович Саттаров	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
Джалилова Феруза Намазовна	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
Zuhriddin Azizov	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США)	222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	

MTTLARDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR MASHG'ULOTLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH TEKNOLOGIYASI

To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna

Kimyo International University in
Tashkent Namangan Branch

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqni rivojlantirish, MTT larda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, nutqiy muloqot shartlari, dialogik nutq, diksiya, to'g'ri talaffuz qilish, aniq talaffuz, ifodali nutq.

Abstract: This article discusses the technology of using interactive methods in speech development classes, speech development classes in MTTs.

Key words: speech culture, conditions of speech communication, dialogic speech, diction, correct pronunciation, clear pronunciation, expressive speech.

Аннотация: В данной статье рассматривается технология использования интерактивных методов в классах развития речи, а также в классах развития речи в рамках многопрофильных учебных групп.

Ключевые слова: культура речи, условия речевой коммуникации, диалогическая речь, дикция, правильное произношение, четкое произношение, экспрессивная речь.

KIRISH

Nutq madaniyati – bu to'g'ri so'zlay olish, ya'ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko'zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zahira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir.

Nutqni rivojlantirish – bolaning yakka tartibdagi psixologik jarayonida markaziy o'rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishiga doir murakkab va ko'p omilli jarayondir.

Nutqni rivojlantirish metodikasi boshqa har qanday pedagogika fani sifatida ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Til va fikrlash haqidagi ta'limotlar uning metodologik asosi hisoblanadi. Xuddi til kabi insonning birgalikdagi mehnat faoliyati mobaynida paydo bo'ladigan va rivojlanadigan fikrlash uni o'rab turgan borliq aksi hisoblanadi. Tilning fikrlash bilan mustahkam uzviy bog'liqligi kishilarning ishlab chiqarish faoliyati, fikr almashish va birgalikda harakat qilish zarurati tufayli yuz beradi. Garchi til va fikrlash bir-birisiz mavjud bo'lolmasa-da, ular aynan bir hodisaga taalluqli emas.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi.

Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamiz olimlaridan F.Qodirova, R.Qodirova, D.Babayeva, Z.Azizova, G.A.Berdaliyeva, N.Abdulayeva, G.Nazirova, M.A'zamova, M.Berdiyeva, S.Raximova, D.Abdurahimova, M.Xushnazarova, F.Valixojayeva, K.Mamedov, M.Masharipova, N.Nurmuxamedova, N.Rejаметova, D.Ro'ziyeva, D.Sobirova, I.Tuychiyeva, M.Umarova, M.Halimova, T.Chabrova, Sh.Shodmonovalar tomonidan axloqiy-estetik, ekologik tarbiya jarayonida bolalarning nutqini rivojlantirish, fikrlash faolligini oshirish, dialogik nutqni rivojlantirish omillari, nazariy-metodik asoslari, nutq o'stirish jarayonlariga tabaqalashgan yondashuvni tatbiq etish masalalari yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan O.Aleksandrova, A.Arushanova, O.Berejnaya, O.Bizikova, V.Gerbova, T.Zaxarova, I.Lebedova, T.Lombina, E.Sudakova, M.Ushakova kabilarning tadqiqotlarida bolalarning fikrlashi va nutqi, dialogik muloqotni rivojlantirish, nutqni rivojlantirishning ijtimoiy moslashuvga ta'siri, monologik nutqni rivojlantirish, nutq o'stirish mashg'ulotlarida syujetli rasmlardan foydalanish, bog'lanishli nutqni rivojlantirishning leksik-grammatik vositalari, nutqni rivojlantirishda integrallashgan mashg'ulotlardan foydalanishning metodik jihatlari tadqiq etilgan.

Bolalarga ona tilida nutqni o'rgatish tajribasidan ma'lumki, alohida tovushlar artikulyatsiyasini o'zlashtirish bola uchun eng qiyin vazifa hisoblanadi. O.I.Soloveva nutqning tovush madaniyati tarbiyalashga doir ishlarning asosiy yo'nalishlarini belgilar ekan, "pedagog oldida bolalarga so'zlardagi tovushlarni sof, toza talaffuz qilish, so'zlarni rus tilining orfoepiya qoidalariga muvofiq holda to'g'ri talaffuz qilish, aniq talaffuz etishni (yaxshi diksiya) o'rgatish, ularda ifodali nutqni tarbiyalash vazifalari turganligini" ta'kidlaydi.

Biz atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirishga innovatsion yondashuvni xisobga olib tadqiqot olib borishni maqsad qilib oldik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni o'zida bolalarga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirgan, yaxshi nazariy hamda amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis tashkil qilishi va amalga oshirishi lozim.

Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlar maktabgacha tarbiya muassasasidagi ta'lim-tarbiya ishlari ichida alohida o'rin tutadi. Ushbu ishning maqsadi quyidagilardan iborat: - bolalarga nutqiy muloqotning muhim shakli – og'zaki nutqni adabiy til me'yorlariga muvofiq holda egallashni, to'liq ko'rinishda esa tushunish va faol nutqqa kirishishni o'rgatish. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini rivojlantirish borasidagi vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

1. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
2. Lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish.
3. Nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish.
4. Og'zaki (dialogik) nutqni o'rgatish.
5. Ravon nutqni rivojlantirish.
6. Badiiy so'zga qiziqishni tarbiyalash.
7. Savod o'rganishga tayyorlash.

Nutqni rivojlantirish metodikasi psixolingvistikaning asosiy qoidalari asosida quriladi. Uning "til inson faoliyatining barcha sohalarida muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi" degan asosiy qoidasi nutqni rivojlantirish metodikasida dasturilamal bo'lib hisoblanadi. Shu bois nutqni rivojlantirish metodikasi tarbiyachini muloqot vositasi sifatida bolalar nutqini rivojlantirishga oid bilimlar va qobiliyatlar bilan qurollantirishga qaratilgandir.

Ayni paytda nutqdagi tovushni shakllantirish jarayonida tarbiyachi ayrim logopedik usullardan foydalanishi, ya'ni xuddi logoped kabi nutq kamchiliklarining oldini olishga qaratilgan ishlar bilan shug'ullanishi mumkin.

Tovush artikulyatsiyasini egallash ancha uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u ko'pincha besh yil, ba'zan esa yetti yilgacha cho'ziladi: bu boradagi ishlar muvaffaqiyatli olib borilgan taqdirda bola besh yoshdan boshlab sof so'zlay boshlaydi. "Bolalar bog'chasida tarbiyalash dasturi" bola hayotining yettinchi yiliga kelib – ya'ni, bolalarga o'qish va yozish o'rgatish boshlanadigan davrga kelib uning barcha tovushlar artikulyatsiyasini to'liq o'zlashtirishini ta'minlash vazifasini qo'yadi.

Bolalarga to'g'ri talaffuzni o'zlashtirish vazifasi agarda ular orfoepik talaffuzli shaxslar ichida o'sayotgan bulsa juda oson hal etilishi (bu holda ularda birinchi kundan boshlab artikulyatsiya bazasi to'g'ri shakllanadi) va ayni paytda u kattalardan shevaga xos yoki xalqona talaffuzdagi so'zlarni eshitsa bu jarayon juda qiyin kechishi (aniqrog'i – hech narsani o'zlashtira olmasligi) mumkin.

Til haqidagi fanda turli toifadagi gaplar intonatsiyasi va o'z-o'zidan, prosodemalar, ularning artikulyatsiya organlarini modullashtirishdagi ishtiroki masalasi juda kam o'rganilgan.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqini rivojlantirishdagi asosiy natijalar muloqot sohasidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Tengdoshlar bilan muloqot qilish birinchi o'ringa o'tadi. Bola o'z tengdoshini kattalardan afzal ko'ra boshlaydi. O'yin jarayonidagi o'rtog'iga qaratilgan nutq kattalar bilan bo'lgan muloqotga qaraganda ancha mazmunliroq bo'la boshlaydi. Sherik bilan dialog - muvofiqlashtirilgan predmetli va nutqiy faoliyat tusiga ega bo'ladi. Bolalar endi qo'shnilari e'tiborini jalb qila oladilar, o'zlari ham uning ishlari va bildirgan fikrlari bilan qiziqadilar.

Maktabgacha yoshdagi katta bola uchun nutq obyektiv aloqalarning o'ziga xos sohasi sifatida namoyon bo'ladi, u ularni so'z, tovush, qofiyalar va fikrlar bilan anglaydi.

O'zining amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bola mavjud barcha vositalardan, vaziyatdan kelib chiqib beixtiyor bildirilgan fikrlardan, nonutqiy vositalardan (imo-ishoralar, yuz ifodasi, harakat) va matnli nutqdan (foydalanilgan vositalar asosida tushunarli bo'lgan) foydalanadi.

Nutqning barcha turlari va shakllari til shaxsining takrorlanmas individual qiyofasini yaratgan holda o'zaro hamjihatlikda mavjud bo'ladi.

Dialogni rivojlantirish nafaqat shunchaki nutqning muayyan kompozitsion shaklini o'zlashtirish, balki bolaning ijtimoiy va shaxs jihatdan shakllanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dialogik muloqot nafaqat aloqa (intelektual axborot) va o'z manfaatlariga yo'nalishni, balki sherikning nuqtayi nazarini, uning qiziqishlari, istaklari, kayfiyatini hisobga olishni ham ko'zda tutadi. Dialogda nutqiy harakatlarni muvofiqlashtirish bevosita o'z tengdoshini tushuna olish va uning nuqtayi nazarini qabul qilishga bog'liq bo'ladi.

Bolalarning ona tilida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq ma'naviy boyliklarini qanchalik meros qilib olishlari, tarbiyalanuvchilarning kelgusida o'z davrining ilmiy yutuqlarini o'zlashtira olishlari, ularning insoniyatning ilg'or she'riy va estetik ideallariga sodiqligi, ya'ni mustaqil O'zbekistonda demokratik jamiyatning to'laqonli quruvchilari bo'la olishlari tarbiyachiga bog'liqdir.

Bolalarga nutqni o'rgatish uchun bo'lajak tarbiyachi nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasini chuqur o'rganishi va ushbu sohaning fanga ma'lum bo'lgan metodlarini o'zlashtirishi, bolaning ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlarini tushunib yetishi lozim.

Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni – bolalarda og'zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy muloqoti ko'nikmalarini shakllantirishdir. Nutqni rivojlantirish metodikasi quyidagi asosiy savollarga javob topish imkonini beradi: nimani o'qitish (bolalarda qanday nutqiy ko'nikmalarni tarbiyalash), qanday o'qitish (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda qaysi metod va usullardan foydalanish lozim), nega endi aynan shunday o'qitish zarur (nutqni rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysi ma'lumotlariga asoslanmoqda).

Nutqni rivojlantirish metodikasi – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir.

Metodikaning asosiy vazifasi – ilmiy-psixologik asosda nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalari, metodlari va usullarini ishlab chiqish hamda bolalarda zarur nutqiy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirishlari uchun ular bilan bolalar bog'chalari tarbiyachilarini qurollantirishdan iboratdir.

Nutqni rivojlantirish metodikasi bolalarga ona tilini o'rgatishning obyektiv xususiyatlari aks ettirilgan, nutqni rivojlantirish metodikasi sohasida O'zbekiston Respublikasida va xorijda yaratilgan va hozirda mavjud bo'lgan barcha ijobiy natijalar umumlashtirilgan.

Metodik nazariyani bilmaydigan tarbiyachi faqat o'z farazlaridan kelib chiqib yoki boshqalarning tajribalaridan nusxa ko'chirgan holda bolalarni ko'r-ko'rona tarbiyalaydi. U ko'p narsani nazardan qochiradi, chunki rang-barang metodlar va usullarni bilmaydi. Nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasi metodik amaliyot bilan birgalikda rivojlanmoqda. Ayrim metodik qoidalarning yashovchanligi amaliyotda tekshirib ko'rilmogda, amaliyotning o'zi fan oldiga hali o'z yechimini topmagan muhim masalalarni qo'yogda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutqni rivojlantirish metodikasi maktabgacha ta'limdagi boshqa xususiy metodikalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi, chunki nutq – bola shaxsini to'la-to'kis rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Atrofdagilar nutqini tushunish va bolaning o'z faol nutqi har qanday pedagogik jarayonda zarurdir. Nutq bolaning butun faoliyatida unga yo'ldosh bo'ladi.

Intellekt, ya'ni tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayolot, fikrlash, shuningdek, nutq yordamida anglash qobiliyati – bu insonni hayvondan ajratib turuvchi muhim xususiyatlardir. Va intellekt ham, nutq ham insonda ilk bolalik yoshida paydo bo'ladi hamda u o'smirda va yosh yigitda faqatgina uning organizmi rivojlanayotgani uchun emas, balki ushbu odam nutqni ham o'zlashtirib olgan taqdirdagina jadal takomillashib boradi.



Agarda bola atrofidagi kattalar uni beshikdan boshlab to'g'ri so'zlashga o'rgatsalar, bu holda bunday bola intellektual jihatdan normal rivojlanadi: unda tasavvur qilish, so'ngra fikrlash va xayol surish qobiliyati paydo bo'ladi; har bir yosh bosqichda bu qobiliyat takomillashib boradi. Bola intellektining rivojlanishi bilan bir vaqtda uning emotsional-iroda sohasi ham takomillashib boradi.

Nutqni rivojlantirish metodikasi har qanday rivojlanishning umumiy shakllari, tomonlari va o'zaro bog'liqligini aks ettiradigan dialektika qonunlari va toifalariga tayanadi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ona tilidagi tovushlarni aniq aytish, ularni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar va iboralarni aniq talaffuz qilish, to'g'ri nutqiy nafas olish, shuningdek, ovoz kuchidan yetarli darajada foydalana olish qobiliyati, nutqning normal sur'ati va ifodalilikning turli intonatsion vositalari (nutq musiqasi, mantiqiy sukut, urg'ular, nutq sur'ati, ritmi va tembri) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Nutqning tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Nutqni rivojlantirish metodikasi zamonaviy ona tili (o'zbek, rus tillari va boshq.) kurslariga, adabiyot-shunoslik asoslarini o'zida jamlagan bolalar adabiyotiga, umumiy, bolalar va pedagogik psixologiyaga, umumiy va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasiga tayanadi.

Metodikaning mazmuni va uni amalga oshirishning yetakchi g'oyalari sifatida quyidagilar chiqadilar:

1. Bolaning qadr-qimmatini va uning o'ziga xosligini tushunish, bola nutqini "yaqin rivojlanishi hududi"ga qarab rivojlantirishni ko'zda tutgan holda rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olish;
2. Pedagogik muloqotning bola bilan emotsional aloqa o'rnatishga, u bilan dialogik hamkorlik qilishga yo'naltirilganligi;
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga nutqni maxsus o'rgatishning asosini kommunikativ yondashuv tashkil etishi lozim bo'lgan nutqiy faoliyat tuzilmasi doirasida amalga oshirilayotgan ijodiy jarayon sifatidagi ahamiyatini tan olish.

Nutq madaniyatini rivojlantirishga oid ishlarga kasbiy tayyorlik shakllanganligi mezon sifatida quyidagilar chiqadilar:

1. Nutqni rivojlantirish kursini o'rganish va bolalar bilan ishlashga mas'uliyat bilan yondashish;
2. Bolalar nutqini rivojlantirish mexanizmi va xususiyatlari, nutqiy faoliyatning nazariy asoslari, yakka tartibda nutqiy rivojlanishni dignostika qilish tamoyillari va metodikasi, nutqning turli qirralarini rivojlantirish metodlari va vositalarining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarning to'liqligi va izchilligi;
3. Bolalarning nutqiy muloqoti natijalarini mos ravishda tahlil qilish hamda baholash, bola nutqiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul tizimini tanlash va qo'llashga qodirlik.

Nutqni shakllantirishning muhim vositasi bo'lgan badiiy adabiyot bola nutqini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Bolalarning ushbu san'at turini qabul qilishidagi o'ziga xosliklar, bolalar bog'chasida kitoblar yordamida amalga oshiriladigan ishlar mazmuni va metodikasi tegishli mavzuda ochib beriladi.

Nutqdagi buzilishlar – inson ahvolini baholashda til parametrlari yordam berishi mumkin bo'lgan yagona holat emas. Ayrim vaziyatlarda (ruhiy zo'riqish, siqilish paytida) yaxshi tayyorgarlikdan o'tgan odamlarda fiziologik parametrlar bo'yicha ayrim nuqsonlar sezilmaydi. Ammo ularning nutqi mutaxassis bo'lmagan odam tushunishi qiyin bo'lgan darajada o'zgaradi. Ko'pincha faqat til mezonlarigina bunday holat yuz berishidan dalolat berishi mumkin.

Nutq madaniyatini zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir.

Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi.

Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar.

Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida – uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bolaning nutqning yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o'zlashtirishiga olib keladi.

Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jaryonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'y-harakatlarni uyushtirish kalitidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Keyingi 10 yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda "Pedagogik texnologiya", "Yangi pedagogik texnologiya", "Ilg'or pedagogik texnologiya", "Progressiv pedagogik texnologiya" kabi tushunchalar ko'p uchrab turgani bilan, ularning o'zbek tilidagi maromiga yetgan ta'rifi hali tuzilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarova M. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – T., 2001.
2. Begmatova N.X., Aripov M. Multimeidiya texnologiyasidan foydalanish. – T., 2012.
3. Bekmatova O.A. va boshqalar. "Quvnoq harflar". – T.: "O'qituvchi", 2000.
4. Vaxobova F.N., Rasulova M. Sh. va boshqalar. "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari". – T., 2008.
5. Гербова В. Планирование работы по развитию речи и ознакомление с художественной литературой // Дошкольное воспитание, 1999. – №3, 19-22 с.
6. Jalolova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish. – T., 2004.
7. Kadirova R.M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning omillari (o'quv qo'llanma). – T.: TDPU, 2002.
8. Lyublinskaya A.A. Tarbiyagacha bolalarning rivojlanishi haqida. – T.: O'qituvchi, 1997, 279 b.
9. Sayidahmedov Y. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati // Xalq ta'limi, 1999, №1, 97-102 b.
10. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. – T.: Ma'naviyat, 2003.
11. Xujamberdiyeva Sh.K. Modern Technologies for Introducing Preschool Children to Works of Literature // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – Brussel, 2023, Vol 9. –P.137-142.
12. Kopaysinovna K.S. (2022). Age-related Characteristics and Teacher's Skills of Introducing Artistic Works to Preschool Children. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2 (1.5 Pedagogical sciences).
13. Khujamberdieva Sh.K. Practical Condition of the Problem of Introducing Preschool Children to Literary Works // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol. 11 No. 1, 2023. ISSN 2056-5852. –P. 1-6. <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2023/03/>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.